

SHARQ MUTAKKILARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID MA'NAVIY- AXLOQIY QARASHLARI

Shodiyeva Aziza Zokir qizi

*Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti ,Milliy g'oya,ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-,D"guruh talabasi*

Annotatsiya : Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lism-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islam dinida bolalar tabiyasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lism-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotta ulardan to'g'ri foydalanish, pegagogik ta'lism jarayonida o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri ekanini ochib berish va tushuntirishdan iborat.

Аннотация: В статье говорится о взглядах восточных мыслителей на вопросы воспитания и нравственности, характера детей в исламской религии. Также используются подходы, идеи и взгляды восточных мыслителей в творческой деятельности восточных мыслителей для привития в сознании молодого поколения – раскрыть и объяснить, что знание методов и средств обучения, правильное их использование в жизни является одной из важных особенностей студента в процессе педагогического образования.

Annotation: The article talks about the views of Eastern thinkers on issues of education and morals, the nature of children in the Islamic religion. Also, the approaches, ideas, and views of Eastern thinkers in the creative activities of Eastern thinkers are used to inculcate in the minds of the young generation. It is to reveal and explain that knowledge of educational methods and tools, their correct use in life, is one of the important features of the student in the process of pedagogical education.

Kalit so'zlar : tarbiya, odob, axloqiy qoida, barkamol inson, ma'naviy fazilatlar, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islam madaniyati, islam dini .

Ключевые слова: образование, нравы, моральные правила, совершенный человек, духовные качества, гуманизм, общечеловеческие ценности, национальная ценность, национальное мышление, исламская культура, исламская религия.





Key words: education, manners, moral rule, perfect person, spiritual qualities, humanitarianism, universal human values, national value, national thinking, Islamic culture, Islamic religion.

Kirish: Jonajon O'zbekistonimiz zaminidan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, umumjahon miqyosida e'tirof etilgan qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ajdodlarimizdan qolgan boy meros o'zining o'ta muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda. Vatanimiz tarixining ibrat olsa arzigulik zarvaraqlarini holisona o'rganish va ana shunday meros namunalardan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Komil inson tarbiyasiyada o'zidan o'lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish bugungi kunning vazifalaridandir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasidagi) nutqida ta'kidlagan: "Xalqimizning tayanchi ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmosg'imir kerak". Darhaqiqat, ajdodlar merosi o'zligimiz, ma'naviyatimiz, aslimizdir. Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o'z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodiga to'xtalsak. Hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoriyidir. Uning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo'lib, ular orasidan "Al-jome' as-saxix" alohida o'rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'onidan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon qilingan.

Asosiy qism: Butun dunyo bo'yicha "Muhaddislar imomi" degan nom ila ulug'langan Imom al-Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritar ekan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi. Inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lismishga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o'zini tuta olishda, deb hisoblaydi. Oilaviy muhitning barqaror, tinch, oila a'zolarining sog'-salomat, to'q bo'lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo'lish ... kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uning asarlarida aks ettirilgan. Hadisshunos alloma at-Termiziyy hadislarida odamlarni ahil bo'lismishga, jamoaga foyda keltirishga, do'stlik va birodarlikka da'vat etuvchi hadislar ko'p uchraydi. "Barcha musulmonlar o'zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko'rmasliklari kerak.





Kimda-kim o'zining musulmon birodariga yordam qilsa, oxiratda Ollox unga yordam qiladi. Kimda-kim o'z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratini yengil qiladi". Alloma, sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degen xalq maqoliga amal qilib, yoshlikdanoq sog'liqni saqlashga, vaqt ni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi; biri sog'lik, ikkinchi bo'sh vaqt". Imam at-Termiziyning "Sunan" kitobida keltirilgan kishi ijtimoiy sifatlariga oid fikrlar ko'p uchraydi. Chunonchi: "Xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishing va zulmdan qaytarishing – sening sadaqang", "Adashgan kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishing ham – sening sadaqang", "O'z paqiringdan boshqalarning idishiga suv solib berishing ham – sening sadaqang hisoblanadi". Buyuk mutafakkir olimlardan yana biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy o'z qarashlarida ta'limda talabaning shaxsiy kuzatishlariga katta e'tibor bergan. U sezgi orqali bilish – qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shgan. U insonni aqliy kamolga etkazishda ilm-fan va ta'lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan.

Abu Nasr Farobi esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Farobi fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa, deydi alloma, faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho'qqisi – bilim olish jarayonidir. Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy sifatlarini shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o'rin egallaydi, deydi Farobi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy ta'limotida bilim oluvchilarga qalbingni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'limgan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, ochko'zlikdan va shon-shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi. U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda, deb bilgan. Bilimlarni o'zlashtirishda kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhit o'rnini alohida ta'kidlaydi. Beruniy faxrlanishni yaxshi xulk ma'nosida ishlatib, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday deydi: "Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulq va oliy fe'llar oldin ketishi, ilmu-hikmatni egallah va imkoniyat boricha mavjud nopliliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi". Beruniy inson kamolatida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi ma'rifat, ilm-fanni ham e'tirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiyadir. Beruniy nazarida inson kamolga yetishining muhim omillari ko'p bilimga ega bo'lish va yuksak ahloqiylikdir.





Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog'liq holda ifodalagan. Olimning ijodida "komil inson tarbiyasi to'g'risida"gi qarashlariga to'xtalsak. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga erishishni da'vat etadi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini oshib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo'rqlasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar: Odamlarning botiri mushkilotdan qo'rqlasli maydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqlasli idir"2. Zero bilimli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqlasli maydi, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishini uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyyotkor bo'lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb hisoblaydi. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya va ahloqqa oid qaysi asariga ahamiyat bermaylik bu asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizning ta'lim-tarbiyasida, ularning zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo'lishlaridagi ahamiyati kattaligiga amin bo'lamiz.

Yetuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib ta'limotida ham inson komilligi, kamoloti masalalari keng o'rinni olgan. Olimning eng mashhur "Qutadg'u biling" (Saodatga eltuvchi bilim) ta'lim tarbiyaga oid, har tomonlama komil inson qilib tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asari, pand-nasihatlari yoshlarni chin ma'noda komillikka yetaklovchi asardir. Asarda ahloqiy xislatlar – insoniylik, rostgo'ylik, ishonch, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, insof, sodoqat, aql-zakovat, halollik ... kabilalar ulug'lanadi. Faxr va iftixor bilan ayta olamizki, jonajon zaminimizdan jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo'shgan allomalar, faylasuf olimlar juda ko'p yetishib chiqqan. Ularning merosidan foydalanib, milliy mentalitimizni, qadriyatu an'analarimizni, ma'naviyatimizni, insoniy go'zal hislatlarimizni, tafakkurimizni, samimi dunyoqarashlarimizni yanada boyitish hamda o'zlashtirish mumkin. Bu har bir qalb uchun faxrga aylansin!

Farobi bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin". Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib





tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor bergenligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lган ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulugbekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lган qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odad va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lган ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning o'qtirishicha insonni ta'llim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o'stirish mumkin. Koshifiy o'zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga aloxida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga aloxida axamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muxit muxim o'rinn tutadi. Bola to'g'ri so'zli, vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.





Jaloliddin Davoniy ota – onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to'xtalgan edi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashishi ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo'l mishoziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko'rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslixiddin Sadi Sherazi pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'llishi mumkin. Qobiliyat o'z – o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga, ya'ni oilaviy tarbiyaga kata e'tibor beradi.

Sadi ota – onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta'sir etmaydi.XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy xayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy o'z asarlarida ma'rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalarini olg'a surdi.U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolatida tutgan o'rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi xaqidagi pedagogik fikrlarini xam bayon etadi.Komil Xorazmiyning fikricha ilm-xunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy xayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi.

Shoir tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko'p erk bermaslikni maslaxat beradi. Uning ta'kidlashicha, ortqcha so'zmonlik kishi boshiga olin o'rniga qattiq tosh bo'lib tegishi mumkin.Shoir yomon so'zli, ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilarni jumladan yoshlarni ular bilan xamsuxbat bo'lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o'z asarlarida xalqniadolatli, ongli, bilimli bo'lishga, jaxolatdan yiroq turishga da'vat etadi, uning fikricha,adolat sharaf ko'rki, osoyishtali, xushnutilikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo'lishga, ularni hurmat qilib e'zozlashga chorlaydi.Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta'lim – tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki xozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Mohlaroyim Nodiraning inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an'analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyaları-adolat, insof, xalq manfaati muxim o'rinni egallaydi. Nodira xayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik





chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'ladi, o'zining bu ezgu ishlari bilan o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'laydi. Ta'llim – tarbiyaga oid ko'p foydali o'gitlarni bayon etdi.

Muxammad Rizo Ogahiy o'z ijodiy faoliyatini pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasi ham yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an'analarimiz mexmondo'stlikni go'zal fazilatlardan biri hisoblaydi. Mehmonga chuqur xurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodidan o'z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallahga da'vat etdi. Ogahiyning ta'kidlashicha, insonga do'st va dushmanni ajratib olish xayotda o'z o'rnnini topib olishda g'oyat muximdir. Uning fikricha to'g'ri so'z kishilar xayotda qiyinchilik bilan yashasalarda, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar. Ogahiy ta'llim-tarbiya ilmlarni egallah va tilni bilishda xam muxim axamiyatga molik ekanligini ta'kidlaydi. Muxammad Rizo Ogaxiy o'z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishga da'vat etdi. U do'stlikni mehmondo'stlikni axloqiy go'zallikni ulug'ladi. Insonlarni ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga chorlaydi. Ogahiyning buf ikr o'gitlari hozir ham pedagogik sifatida qimmatlidir.

Berdimurod Berdaq Qaraqolpog'iston xalq shoiri butun ijodi davomida xalqlar tengligi, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat haqidagi g'oyalarini olg'a suradi.

Berdaq insonning shaxsiy baxti xalq baxti bilan bog'liq deb biladi. Uning ta'kidlashicha, har bir odam haqiqiy baxtga erishishi uchun o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo'lsa jonini ham ayamasligi kerak. Berdaqning fikricha inson oliy axloqiy sifatlariga, chunonchi, beg'arazlik, oljanoblik, vijdoniylilik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo'lishi lozim. Berdaq yoshlarning aqliy tarbiyasida muktabning mavqyei katta ekanligini ta'kidlaydi. Muktabda bolani yaxshi xulqi atvorli qilib tarbyalash lozim. Uning fikricha muktabda dars beruvchi muallim o'z xushmuomilaligi, pok qalbligi, haqgo'yligi, o'z fanini yaxshi puxta bilishi bilan bolalarga o'rnak bo'lishi kerak.

Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muxim o'rinn tutishni aloxida ta'kidlaydi, oila muxitida ota – onalar bilan bolalar o'tasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug'ilgan kundanoq tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalardir. Berdaqning fikricha barcha odamlar insonparvar va adolatli bo'lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, xalqqa ta'llim berish, unda ijobili xulq-atvorni tarbyalash lozim. Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jaxon miyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan ulug' siymolardan biri Mirzo Ulug'bek. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallahga da'vat etdi.



Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta'minlashga ishondi.

Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining xaqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim. Mirzo Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy xunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga aloxida axamiyat beradi. Ulug'bekning fikricha odam sog'lom va baquvvat bo'lishi uchun yoshlik chog'idayoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, ta'lif – tarbiyada poraxo'rlik, qalloblik bo'lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo'lishi kerak.

Buyuk shoir va olim, fors – tojik mumtoz adabiyotning ulug' namoyondasi Nuriddin Abduraxmon Jomiy o'zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o'lmas me'ros qoldiradi. U o'z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo'lda yozilgan «Bahoriston» asarida ta'lif – tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi. Jomiy o'z asarlarida yoshlarni ilmlarini egallahsha da'vat etadi. U o'z pedagogik qarashlarida kishilarniadolat, xushmuomalalik va dono so'z bilan zulmkorlarga ma'sir etishga da'vat etadi.

Xulosa: Sharq mutafakkirlari asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ta'lif-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'z asarlarida shaxs ma'nnaviyati, insonda odob axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof muhitga nisbatan e'tiborli bo'lib, oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarini bayon qilganlar. Shunday qilib inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari asarlarida insonning bilim olishi, kasb hunar egallashi, undagi yuksak ma'nnaviy axloqiy sifatlarni ulug'lashadi. Ma'nana yusak aql zakovat va tafakkurga ega avlodlar xalqning ustunu va poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma'nnaviyat - engilmas kuch. T.: Ma'nnaviyat, 2008 y.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: "Hilol-nashr" 2013 y.
3. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'nnaviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
4. Xajiyeva. M.Xoja Ahmad Yassaviyning ma'nnaviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.



- 
5. Shoxadjsyaev M. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
 6. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya" 2008 y.
 7. Dolimov S., Dolimov U. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
 8. San'at - yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
 9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.

